

IQLIM O'ZGARISHINING QO'QON VOHASI LANDSHAFTLARIGA TA'SIRI

*F.S. Meliboyeva -Qo'qon davlat universiteti, Geografiya va iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi, g.f.f.d. (PhD),
Y.R.Ro'zaliyeva- Qo'qon davlat universiteti, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi va uning O'zbekistonga, jumladan Qo'qon vohasi va uning landshaftlariga ta'siri tahlil qilingan. Qo'qon vohasi va uning tabiiy geografik joylashuvi, iqlimini shakllantiruvchi asosiy omillari yoritilgan. Iqlim o'zgarishi sharoitida landshaftlar barqarorligini ta'minlash to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, Qo'qon vohasi landshaftlari, shamollar, landshaft ekologik muvozanat, landshaftlar barqarorligi.

Аннотация: В данной статье анализируется изменение климата и его влияние на Узбекистан, включая Кокандский оазис и его ландшафты. Освещены Кокандский оазис и его природно-географическое положение, основные факторы, формирующие его климат. Выделены мнения по обеспечению устойчивости ландшафтов в условиях изменения климата.

Ключевые слова: изменение климата, ландшафты Кокандского оазиса, ветры, ландшафтно-экологическое равновесие, устойчивость ландшафта.

Abstract: This article analyzes climate change and its impact on Uzbekistan, including the Kokand oasis and its landscapes. Kokand oasis and its natural geographical location, the main factors that shape its climate are covered. Opinions on ensuring the stability of landscapes in the conditions of climate change are highlighted.

Key words: climate change, Kokand oasis landscapes, winds, landscape ecological balance, landscape stability.


Yer sharida aholining izchil ortib borishi va sanoat korxonalarini ko'payib ketishi, transport vositalarining faolligi natijasida XX ikkinchi yarmiga kelganda butun yer shari bo'ylab global iqlim o'zgarishi yuz bermoqda. Global miqyosda iqlim o'zgarishi qanday sodir bo'lishi hududning geografik o'rni bilan chambarchas bog'liq. Respublikamizda iqlim o'zgarishlarini tadqiq qilishda V.A.Bugayev nomidagi O'rta Osiyo gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti mutaxassislari tomonidan taqdim etilgan tadqiqot metodlarini tahlil qilishga harakat qildik. Respublikamiz hududida iqlim o'zgarishiga asos SO₂ ni atmosferaga ko'p miqdorda chiqarib yuborishimiz bilan ifodalanadi. SO₂ miqdorini ikki marta ko'payib borishi natijasida 2030 yilga kelib harorat o'rtacha yozda 2⁰C, qish faslida esa o'rtacha 4-5⁰C oshib borishini kuzatishimiz

mumkin. Respublikamizda eng yuqori haroratlar Ustyurt platosida, Quyi Amudaryo va Orolbo'yi hududlarida qayd etilmoqda [2].

Qo'qon vohasi hududiga g'arbdan va shimoldan kirib keladigan havo massalarining sirkulyatsiyasi hamda yoz oylarida hosil bo'ladigan termik depressiya bilan birgalikda hududdagi atmosfera bosimi ham katta ahamiyatga ega [1]. Qo'qon vohasining orografik joylashuvi hududda havo harorati va yog'ingarchilik miqdorining taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biridir. Hududdagi harorat va yog'ingarchilikning mavsumiy va yillararo o'zgarishi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ya'ni hududning orografik joylashuvi yog'ingarchilikning intensivligi va davomiyligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qo'qon vohasida havo harorati turlicha taqsimlangan bo'lib, uning markaziy qismi ya'ni Qo'qon shahrida yanvarning o'rtacha harorati $-2,2^{\circ}\text{C}$, iyul oyining o'rtacha harorati esa $26,8^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Qo'qon vohasining relyefi pasttekislik, qir, toshloq va qumli chalacho'llardan iborat bo'lgan g'arbiy qismida yanvarning o'rtacha harorati -2°C , iyul oyining o'rtacha harorati esa 28°C ga teng bo'lib, yiliga 200 mm yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 205 kunni tashkil etadi. Hudud iqlimining shakllanishida O'rta Osiyodagi kuchli shamollardan biri bo'lgan Farg'ona vodiysining Farg'ona yo'lagi ("Xo'jand yo'lagi") orqali vodiylar tomon harakatlanuvchi Qo'qon shamolidir. Uning tezligi 32-35 m/sek. bo'lib, yiliga o'rtacha 40 kun esadi. Farg'ona vodiysidan Mirzacho'l tomon esa Bekobod shamoli asosan noyabr oylarida boshlanib mart oylariga qadar davom etib, bir yilda o'rtacha 52 kun esadi [3]. Ushbu shamollarning Qo'qon vohasida haroratning o'zgaruvchanligi va yog'inlar miqdorining taqsimlanishida muhim ahamiyatga egadir. Vohaning sharqiy qismi toshloqli dast hamda tekislikdan iborat bo'lib, yanvarning o'rtacha harorati -3°C , iyul oyining o'rtacha harorati 26°C , yog'in miqdori esa yiliga 180-220 mm ga teng. Asosan tekislikdan iborat bo'lgan vohaning shimoliy qismi iqlimi kontinentaldir. Bahor va kuzda kuchli shamollar esib, yozi issiq, qishi esa birmuncha yumsoq. Vohaning shimoliy g'arbiy qismlarida yanvarning o'rtacha harorati $-2,2^{\circ}\text{C}$, iyul oyining o'rtacha harorati esa $26,8^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lib, yiliga 110 mm yog'in yog'adi. Vegetatsiya davri 220 kunni tashkil etadi. Shimoliy sharqiy qismlarida esa yanvarning o'rtacha harorati $-2,3^{\circ}\text{C}$, iyul oyining o'rtacha harorati $27,5^{\circ}\text{C}$ ga teng. Yog'in miqdori esa 120-130

mm

ni,



1.1-rasm. Qo'qon vohasining rel'efi.

vegetatsiya davri esa 218 kunni tashkil etadi. Qo'qon vohasining relyefi asosan shimoldan janubga tomon ko'tarilib borishi, uning janubiy qismida iqlimning o'ziga xos tarzda o'zgarishiga sabab bo'ldi. Vohaning janubiy qismida adir hamda dash mintaqalari shakllangan bolib, yanvar oyining o'rtacha harorati -6°C , -10°C ni, iyul oyining o'rtacha harorati esa 25°C ni tashkil etadi. Yog'in miqdori ham shimoldan janubga tomon ortib, vegetatsiya davri esa kamayib boradi.

Iqlim o'zgarishi sharoitida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va landshaft ekologik muvozanatni ushlab turish lozim bo'ladi. Iqlim o'zgarishi avvalo landshaftlar komponentlarini o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Qish oylarida havo haroratini biroz issiq kelishi yoki ba'zi yillari anamal sovuq bo'lishi birinchi joy landshaftlariga o'z ta'sirini qo'rsatmoqda. 2022 yilgi qish faslidagi anomal sovuq bo'lishi Qo'qon vohasi landshaftlariga ham o'z ta'sirini qo'rsatmasdan qolmadi. Buvayda tumanidagi anjirzorlar qurishiga, Qo'qon guruh tumanlaridagi issiqxonalarni muzlashi natijasida aholi daromadiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yoz oylarida esa haroratni keskin issib ketishi natijasida termiq depressiya vujudga kelishi ko'payib bormoqda. Natijada, past bosimli xududga xavoning gorizontalar xarakati kuchayib, shamolning kuchi va tezligi ortib bormoqda. Ba'zida yoz davrida mumkin bo'lmagan yog'in miqdorini ortishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Qo'qon vohasida yozgi

yog'inlarni ko'payishi ham aholi iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mevalarni suv tegishi natijasida yorilishi, yoki chirib qolishi kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, iqlim o'zgarishi Qo'qon vohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu albatta landshaft komplekslaridagi o'zgarishlarni tahlil qilish va baholash natijasida guvohi bo'ldik.

Iqlim o'zgarishi sharoitida har bir vohani o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda landshaft komponentlarini barqaror rivojlanishini ta'minlashimiz kerak:

a) Buning uchun har bir paxtazorlar qirg'og'iga tut daraxtlari yoki tol daraxtlarini qalin va zich qilib ekib, shamol eroziyasidan saqlashimiz kerak bo'ladi. Chunki Qo'qon vohasi oldindan o'zining "Qo'qon shamoli" bilan mashhur bo'lgan.

b) Qo'qon vohasini relyef xususiyatini tahlil qilsak, vohaning janubiy qismidan Sirdaryoga qadar So'x konussimon yoyilmasi hududi bo'ylab janubdan shimolga tomon pasayib boradi. Bu esa yer osti suvlarini gorizontal harakatini ta'minlaydi. (1-rasm)

s) Qo'qon vohasini antropogen komplekslarga aylantirishda o'ziga xos jixatlari mavjud bo'lib, vohaning shimoliy qismi qumli tekisliklardan iboratligi, o'rta qismlari qadimdan dehqonchilik ishlari olib borilganligi sababli o'tloq – voha tuproqlardan iboratligi, janubiy qismi esa kolmantaj yo'li bilan yangi yerlarni o'zlashtirilayotganligi o'ziga xosligini ko'rsatadi va bu esa dehqonchilik ishlarini olib borishda ilmiy jihatdan yondashishni talab yetadi.

d) Qo'qon vohasini janubi baland tog'lardan iboratligi, markaziy va shimoliy qismlari cho'llardan iboratligi o'ziga xos mikroiklimni o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada, kunduzi tog'dan vodiya, kechasi tekislikdan toqqa tomon tog' vodiya shamoli esib turishiga ta'sir ko'rsatadi.

e) vohaning shimoliy qismi pasttekislik va janubiy qismi tog' va togoldi adirlardan, prolyuvial tekisliklardan iboratligi sababli yer osti suvlarini yer ostiga shimilishi uchun imkon yetarli. Bu esa yuqorida shimilgan suvlar tekislikka kelib yer betiga chiqishi natijasida vohaning quyi qismida unumdor tuproqlarni sho'rlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Qo'qon vohasini landshaft komplekslarini tadqiq qilish o'ziga xos prinsiplarga amal qilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Абдулқосимов А., Қўзибоева О. Сўх ёйилмаси ландшафтларини микрозоналлаштириш ва мелиоратив баҳолаш. Монография 82 б Самарқанд 2009.
2. Боймирзаев К.М., Солиев И.Р., Мирзахмедов И.К. Қўқон воҳаси ландшафтларининг экологик оптималлаштириш. Монография 55 б. Наманган 2019

3. Kamalov B.A., Meliboyeva F.S. Iqlim o'zgarishining Qo'qon vohasi tuproq qoplamiga ta'siri // "Geografiya-nazariyadan amaliyotga" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qo'qon 2024. 107-112 betlar
4. Meliboyeva F.S. Qo'qon vohasi iqlimi va undagi o'zgarishlar // "Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand 2024. 325-329 betlar
5. Meliboyeva F.S. Iqlim o'zgarishining Qo'qon vohasi aholi salomatligiga ta'siri // Yosh olimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 150-154 b. 2025
6. Meliboyeva F.S. Iqlim o'zgarishining Qo'qon vohasi suv resurslari dinamikasiga ta'siri// Geografiya fanining dolzarb masalalari: Iqlim o'zgarishi, hududiy rivojlanish va ta'limda innovatsion yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.Qo'qon 2025.147-150 b
7. Meliboyeva F.S. Qo'qon vohasi yer osti suvlarining landshaft ekologik holatiga ta'siri//Geografiya fanining dolzarb masalalari: Iqlim o'zgarishi, hududiy rivojlanish va ta'limda innovatsion yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.Qo'qon 2025.186-190 b
8. Рафиқов А.А Табiiй географик прогнозлаштириш асослари. Тошкент 2024. Б-244